O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI HOKIMINING

Q A R O R I

Termiz shahri, At-Termiziy ko‘chasi 1-uy. 190100, tel.: (+99876) 224-00-15, surxon@exat.uz, gov@sdv.uz

2021 - yil 12 - noyabr 183-8-0-Q/21 Surxondaryo viloyati hokimligi

Qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha xizmatlar uchun majburiy to‘lov tariflarini tasdiqlash to‘g‘risida

“Chiqindilar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 6-fevraldagi 95-son qarori bilan tasdiqlangan “Qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish Qoidalari”ning 7-bandi, xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining 2021-yil 21-oktabrdagi VI-37-113-8-0-K/21-son qaroriga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining 2021-yil 21-oktabrdagi VI-37-113-8-0-K/21-son qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Surxondaryo viloyatida qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha xizmatlar uchun majburiy to‘lov tariflari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Monopoliyaga qarshi kurashish Davlat qo‘mitasining Surxondaryo viloyati hududiy boshqarmasi (E.Eshkeldiyev) va Surxondaryo viloyat Moliya bosh boshqarmasi (B.Xursanov)ga ushbu qaror bilan belgilangan tariflarning to‘g‘ri qo‘llanilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatish topshirilsin.

4. Surxondaryo viloyati Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasi (B.Urunov)ga tegishli xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar bilan birgalikda:

o‘n kun muddatda mazkur qarorga muvofiq jismoniy va yuridik shaxslar bilan tuzilgan shartnomalarga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish;

viloyat hududidagi uy-joy va xonadonlarda ro‘yxatda turib, haqiqatda yashamayotgan yoki ro‘yxatdan o‘tmasdan yashayotgan shaxslarga hamda viloyatda faoliyat yuritayotgan yuridik shaxslar ro‘yxatiga aniqlik kiritib, ular soniga mutanosib ravishda to‘lovlar undirilishini tashkil etish vazifalari topshirilsin.

5. Viloyat hokimining 2019-yil 25-yanvardagi Q-36-son qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb

hisoblansin.

6. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan kuchga kiradi.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosari A.Xidirov zimmasiga yuklansin.

Surxondaryo viloyati hokimi **Bobolov T.A.**

Сурхондарё вилоят ҳокимининг
2021 йил 12 ноябрдаги
183-8-0-Q/21-сон қарорига
1-илова

Surxondaryo viloyatida qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha xizmatlar uchun majburiy to‘lov tariflari

T/p	Tuman (shahar) nomi	To‘lov tariflari	
		Jismoniy shaxslar 1 (bir) kishi 1 (bir) oy uchun	Yuridik shaxslar 1 (bir) m^3 uchun
1.	Termiz shahar	3000	75000
2.	Termiz tumani	3000	75000
3.	Angor tumani	3000	75000
4.	Boysun tumani	3000	54000
5.	Denov tumani	3000	54000
6.	Jarqo‘rg‘on tumani	3000	54000
7.	Qumqo‘rg‘on tumani	3000	54000
8.	Qiziriq tumani	3000	54000
9.	Muzrabot tumani	3000	54000
10.	Oltinsoy tumani	3000	54000
11.	Sariosiyo tumani	3000	54000
12.	Uzun tumani	3000	54000
13.	Sherobod tumani	3000	54000

14.	Sho‘rchi tumani	3000	54000
15.	Bandixon tumani	3000	54000